



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI, MADANIYATI»

MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



tanqidiy tafakkurini rivojlantiradi. Shu bilan birga, publitsistik matnlarni yaratish va tahlil qilish jarayoni o'quvchilarning ijodiy salohiyatini faollashtirib, ularda mustaqil fikrlash, obrazli ifoda, mantiqiy bayon qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi. O'quvchilar publitsistik uslub vositasida o'z fikrini ommaga yetkazish, ijtimoiy muammolar yechimiga o'z hissasini qo'shishga intiladi. Shu bois, maktab ta'limida publitsistik uslubni tizimli o'rganish o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy faolligini oshirishda, ularni zamonaviy axborot oqimida to'g'ri yo'nalishda fikr yurita oladigan, faol va mas'uliyatli fuqarolar etib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Эргашев Б. "Публицистика назарияси ва амалиёти". – Тошкент: Академнашр, 2012. – 22-б.
2. Каримова З. "Танқидий тафаккур ва ахборот таҳлили". – Тошкент: Маърифат, 2018. – 67-б.
3. Расулов А. "Ижодий ёзув машқлари асослари". – Самарқанд: Зиё, 2016. – 14-б.
4. Зокирова М. "Ўқувчиларда танқидий фикрлашни ривожлантириш усуллари" // Педагогика журнали, 2021, №3.
5. Собирова Г. "Медиа саводхонликни ўргатишда публицистик услуб" // ЎЗМУ Илмий ахбороти, 2020, №2.
6. Загашев И. Умение задавать вопросы // Начальная школа, 2001 (4). – С. 13.
7. Снетков В.М. Психология коммуникации в организациях (учебное пособие). – Санкт-Петербург: СПбГУ, 1999. – 116 с.

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/KZSW9651

XORIJLIK TALABALARNING O'ZBEK TILIDA SO'Z O'ZLASHTIRISH BOSQICHLARI

Israilova Z.

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU doktoranti

Annotatsiya

Til o'rganish inson tafakkuri va madaniy aloqalarining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Har qanday chet tilini o'rganish davomida eng asosiy muammolardan biri so'z boyligini shakllantirish va uni amaliy qo'llay olishdir. Bu jarayonda leksik birliklarni o'zlashtirish muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda ham ayni shu jihatlarni e'tiborga olish lozim. Xorijlik talabalar uchun o'zbek tilida so'z boyligini shakllantirish nafaqat grammatik bilimlarni o'zlashtirishni, balki muloqotda so'zlarni to'g'ri tanlash va ishlatishni ham talab qiladi. Xususan, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan xorijlik talabalar uchun so'zlarni samarali o'zlashtirish jarayoni psixolingvistik, metodik va pedagogik yondashuvlarning integratsiyalashuvi asosda tashkil etiladi. Mazkur maqolada chet ellik talabalar tomonidan o'zbek tilida so'z o'zlashtirish jarayonining to'rt bosqichli modeli ilgari suriladi: tanishuv, tushunish, mustahkamlash va avtomatlashtirish. Har bir bosqichda turli lingvistik va psixolingvistik omillar inobatga olinishi maqsadga muvofiq.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, xorijlik talabalar, so'z o'zlashtirish, perseptiv, semantik, reproduktiv, funksional bosqich.



Аннотация

Изучение языка играет важную роль в развитии мышления человека и межкультурных связей. Одной из основных проблем при освоении любого иностранного языка является формирование лексического запаса и его практическое применение. Освоение лексических единиц считается одним из ключевых этапов в этом процессе. Для иностранных студентов, изучающих узбекский язык, формирование словарного запаса требует не только усвоения грамматических знаний, но и умения правильно подбирать и использовать слова в процессе общения. В высших учебных заведениях Узбекистана процесс эффективного освоения лексики иностранными учащимися строится на интеграции психолингвистических, методических и педагогических подходов. В данной статье предлагается четырёхэтапная модель усвоения лексики в узбекском языке для иностранных студентов: ознакомление, понимание, закрепление и автоматизация. На каждом этапе рекомендуется учитывать различные лингвистические и психолингвистические факторы.

Ключевые слова: узбекский язык, иностранные студенты, усвоение лексики, перцептивный этап, семантический этап, репродуктивный этап, функциональный этап.

Abstract

Language acquisition plays a vital role in the development of human cognition and intercultural communication. One of the major challenges in learning any foreign language is building a sufficient vocabulary and applying it effectively in practice. In this process, mastering lexical units is considered one of the essential stages. For foreign students learning Uzbek, vocabulary development requires not only the acquisition of grammatical knowledge but also the ability to choose and use words correctly in communication. In higher educational institutions of Uzbekistan, the process of effective vocabulary acquisition for international students is organized based on the integration of psycholinguistic, methodological, and pedagogical approaches. This article proposes a four-stage model of vocabulary acquisition in Uzbek for foreign learners: familiarization, comprehension, reinforcement, and automatization. At each stage, it is crucial to take into account various linguistic and psycholinguistic factors.

Keywords: Uzbek language, foreign students, vocabulary acquisition, perceptive stage, semantic stage, reproductive stage, functional stage.

O'zbek tilini o'rganayotgan chet ellik talabalar uchun yangi so'zlarni o'zlashtirish va ularni faol nutqda qo'llash jarayoni turli lingvistik, psixolingvistik va metodik omillarga bog'liqdir. Psixolingvistika va ta'lim metodikasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yangi so'zlarni bosqichma-bosqich o'zlashtirish samarali natijalarga olib keladi. Masalan, Krashenning Input gipotezasi ("Input Hypothesis") nazariyasiga ko'ra, til o'rganish jarayoni tushunarli tildan boshlab asta-sekin murakkab so'z va iboralarni o'zlashtirish orqali amalga oshiriladi. Shu nuqtai nazardan, xorilik talabalar uchun o'zbek tilidagi so'zlarni o'zlashtirish bosqichlari quyidagicha ajratishimiz mumkin:

- Tanishuv bosqichi (Perseptiv bosqich) – yangi so'zlarni qabul qilish va idrok etish;
- Tushunish bosqichi (Semantik bosqich) – so'zlarning ma'nosini anglash va ulardan to'g'ri foydalanish qoidalarini o'rganish;



- Mustahkamlash bosqichi (Reproduktiv bosqich) – o'rganilgan so'zlarni faol nutqda qo'llash;

- Avtomatlashtirish bosqichi (Funksional bosqich) – yangi so'zlarni tabiiy ravishda ishlatish va kundalik nutqqa kiritish.

Har bir bosqichni ilmiy tadqiqotlar va real hayotiy misollar asosida tahlil qilib chiqamiz:

Tanishuv bosqichi. Bu bosqichda talabalar yangi so'zlar bilan ilk bor tanishadi. Yangi so'zlarni eshitish, ko'rish yoki yozma shaklda qabul qilish orqali dastlabki idrok amalga oshiriladi. So'zlar talaffuz qilinadi, yozma yoki audio-vizual formatda taqdim etiladi. Ularning ilk taassurotlari va idrok etish darajasi ushbu bosqichda shakllanadi. Mazkur bosqichda quyidagi so'z o'zlashtirish usullarini qo'llash maqsadga muvofiq:

- Vizual o'rganish – yangi so'zlarni rasm, infografika va video orqali tushuntirish. Audio idrok – so'zlarni talaffuz qilish va ularni maxsus audio materiallar orqali tinglash.

- Taktik yondashuv – talabalar yangi so'zlarni amaliy mashg'ulotlar orqali o'rganishadi.

- Talaffuzni anglash – yangi so'zning to'g'ri talaffuzi o'rgatiladi.

Ona tilidagi ekvivalent bilan bog'lash – so'z ma'nosi talabaning ona tilidagi so'z bilan taqqoslanadi.

Kanadalik psixolog Allan Paivio (1986) tomonidan ilgari surilgan "Ikki kodli tizim" (Dual Coding Theory) ga ko'ra, inson miyasi yangi ma'lumotni vizual va verbal shaklda yaxshiroq eslab qoladi. Shu sababli rasmlar va tovushlar orqali o'rgatilgan so'zlarni talabalar 70% ga yaxshiroq eslab qolishadi. Masalan, xorijlik talaba "do'kon" so'zini birinchi marta o'qib yoki eshitib, uni inglizcha "shop", ruscha "магазин" bilan bog'lashga harakat qiladi. Ushbu jarayonda rasmlar, vizual materiallar, videolar kabi ko'rgazmali vositalardan foydalanish so'zning esda qolishiga samarali yordam beradi.

Tushunish bosqichi. Bu bosqichda talaba yangi so'zlarning ma'nosini anglay boshlaydi. U so'zlarning kontekstini tushunish, sinonim va antonimlarni farqlash, shuningdek, turli nutq vaziyatlarida foydalanish usullarini o'rganadi.

Sinonim va antonimlarni tushuntirish – masalan, "katta" so'zining sinonimlari "ulkan", "bahaybat" antonimi esa "kichik" sifatida tushuntiriladi.

Sheva va talaffuz farqlarini ham shu bosqichda farqlab, tahlil qilish mumkin. Masalan, adabiy tildagi "chelak" so'zi Toshkent shevasida ayni shu tarzda qo'llansa, boshqa viloyat shevalarida "paqir", "satil" kabi ishlatiladi. Mazkur bosqichda ba'zi so'zlar hududiga qarab farqlanishi, kundalik og'zaki nutqda shevada so'zlashish mumkinligi tushuntirilishi maqsadga muvofiq.

Interaktiv mashg'ulotlar – talabalarga real hayotiy misollar asosida so'zlarni tushuntirish.

Konseptual xaritalar yaratish – talabalar yangi so'zlarni grafik shaklda bog'lanishini chizib, tushunchalar orasidagi aloqalarni mustahkamlashadi.

Kontrastiv tahlil – so'zlarni talabaning ona tilidagi o'xshash yoki farqli ma'nolar bilan taqqoslash orqali tushuntirish.



Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, agar yangi so'z kontekst asosida tushuntirilsa, uni eslab qolish 30-40% ga oshadi. Masalan, xorijlik talaba "shirin" so'zini turli kontekstlarda ("shirin meva", "shirin so'z", "shirin bola") o'rgansa, so'zni eslab qolish va uni amaliy qo'llay olish samarasi mustaqil o'rganishga nisbatan ancha yuqori bo'ladi.

Mustahkamlash bosqichi. Bu bosqichda talabalar ilgari o'rgangan so'z va iboralarni faol ravishda qo'llay boshlaydilar. Ushbu jarayon yangi leksik birliklarning uzoq muddatli xotirada saqlanishini ta'minlaydi. Mustahkamlash bosqichida so'zlar va ularning ma'nosi o'zlashtirilganidan keyin, ularni kontekstda, real muloqot sharoitida qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu bosqichning asosiy maqsadi – talabalar so'zlarni nafaqat yod olishlari, balki ularni erkin va tabiiy ravishda ishlata olishlarini ta'minlashdir. Yangi o'rganilgan so'z va iboralarni mustahkamlashning samarali usullari ularni turli mashg'ulotlar orqali faol qo'llash bilan bog'liq. Mustahkamlash bosqichida quyidagi metodik yondashuvlar asosiy ahamiyat kasb etadi:

Rolli o'yinlar – talabalar turli vaziyatlarga mos keluvchi dialoglarda ishtirok etadilar. Ushbu usul so'z va iboralarning real hayotiy sharoitda ishlatilishini ta'minlaydi. Masalan, do'konda xarid qilish, mehmon kutish yoki taksi chaqirish kabi mavzularda rolli o'yinlar uyushtirish mumkin.

Matn yozish – talabalar hikoya, esse yoki xotira kundaligi yozish orqali o'rganilgan so'zlarni mustahkamlaydilar. Bu usul so'zlarni nafaqat og'zaki, balki yozma nutqda ham ishlata olish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, o'rganilgan bilim yozuv orqali qayd etilganda, vizual ma'lumot sifatida xotirada qolish ehtimoli oshadi. Natijada, so'z shunchaki yod olinmasdan, faol so'z sifatida nutqda qo'llanadi.

Tarjima mashqlari – talabalar o'z ona tilidagi matnlarni o'zbek tiliga tarjima qilib mashq qiladilar. Tarjima jarayonida so'zlarning kontekstga mos keladigan ekvivalentlari tanlanadi, bu esa lug'at boyligini oshirishga yordam beradi. Xususan, ikkita tildagi frazeologik birliklarni taqqoslash talabalar uchun juda foydalidir.

Juftlikda ishlash – talabalar o'zaro savol-javob qilish, sheriklari bilan yangi so'zlarni qo'llagan holda muloqot qilish orqali mustahkamlash jarayonini tezlashtiradilar. O'zaro hamkorlik yangi o'rganilgan so'zlarni tabiiy muhitda ishlatishga yordam beradi.

Interaktiv o'yinlar – talabalar uchun turli lug'aviy o'yinlar, viktorinalar, krossvordlar va boshqa interaktiv metodlar orqali so'zlarni mustahkamlashga imkon yaratish muhimdir. O'yin shaklida o'rganilgan so'zlar oddiy takrorlash usuliga qaraganda yaxshiroq esda qoladi va faol so'z sifatida nutqda qo'llashga yordam beradi.

Kundalik yozish – talabalar har kuni o'z hayotlarida duch kelgan voqealarni o'zbek tilida yozib borishlari tavsiya etiladi. Bu usuldan zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda, gadjetlarning qaydnomasi yoki ijtimoiy tarmoqlarda kichiki kanal yo bloglar yuritish orqali foydalanishlari



mumkin. Bu usul ularning yozma nutqini rivojlantirish bilan birga, yangi so'zlarni faol ishlatish imkoniyatini ham yaratadi.

Buyuk Britaniyadagi Kembrij universitetida tilshunoslik bo'yicha 2020-yilda o'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, vizual materiallar va kontekstual mashg'ulotlar bilan boyitilgan amaliy til o'rgatish usullari talabalar lug'at boyligini 35-40% ga oshirgan hamda uzoq muddatli xotirada so'zlarning yaxshiroq saqlanishini ta'minlagan.

Avtomatlashtirish bosqichi. Bu bosqichda talabalar yangi o'rganilgan so'zlarni tabiiy va avtomatik ravishda qo'llay boshlaydilar. Bu jarayonda so'z va iboralar shunchaki yodlangan bilim emas, balki haqiqiy kommunikativ vosita sifatida ishlatiladi. Avtomatlashtirish bosqichi talabalar o'rganilgan so'zlarni real muloqot sharoitida faol va erkin ishlatish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

Bu bosqichning asosiy maqsadi – talabalar yangi so'zlarni bexato, izchil va tabiiy ishlata olishlarini ta'minlashdir. :miy muloqot va amaliy mashg'ulotlar orqali o'rganilgan leksik birliklar uzoq muddatli xotirada saqlanib qoladi va har qanday sharoitda avtomatik tarzda ishlatilishi mumkin bo'ladi.

Real hayotiy suhbatlar – talabalar do'konlar, jamoat transportlari yoki ta'lim muassasalarida turli vaziyatlarda o'zbek tilida real suhbat qurishadi. Bunda, asosan, tub aholi vakillari – o'zbekistonlik o'beklar bilan muloqot qilish samarali natija beradi. Bu jarayon so'zlarni tabiiy ravishda ishlatishga yordam beradi. Bu usul nafaqat lug'at boyligini oshiradi, balki talaffuz va muloqot ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Debatlar va munozaralar – talabalar muayyan mavzularda bahslashish, fikr bildirish va dalillash orqali so'zlarni erkin ishlatishni o'rganadilar. Muhokamalar bafaqat fikrni teran, balki nutqning sof va ravon bo'lishiga ham xizmat qiladi. Agar bu kabi muhokamalar o'rganilayotgan xorijiy tilde olib borilsa, tilning amaliy qo'llash jarayoniga ijobiy samara beradi.

Audio va video loyihalar – talabalar o'z nutqini yozib olishlari, audio yoki video materiallar yaratishlari, so'ng ularni o'zlari eshitib tahlil qilishlari tavsiya etiladi. Bunday usul orqali ular o'zlari yo'l qo'ygan xatolarni anglab, o'z kamchiliklari ustida mukammal ishlashlari mumkin.

Avtomatlashtirish bosqichi til o'rganish jarayonining eng muhim bosqichlaridan biri bo'lib, talabalar yangi o'rganilgan so'zlarni tabiiy ravishda ishlatishga o'rgatiladi. Ushbu bosqichda real muloqot, interaktiv suhbatlar va yozma topshiriqlar orqali o'rganilgan lug'at boyligini faol qo'llashga e'tibor qaratiladi. Muloqotga asoslangan mashg'ulotlar, debatlar, mahalliy aholiga integratsiya va audio-video loyihalar bu jarayonning samaradorligini yanada oshiradi.

Tadqiqotlarga ko'ra, tabiiy muloqot orqali o'rganilgan so'zlar 90% hollarda eslab qolinadi va faol qo'llanadi. Mahalliy aholiga integratsiyalashgan talabalarining esa tilni o'zlashtirish jarayoni yanada tezroq rivojlanishga olib keladi. Shuningdek, AQShning Braun universiteti tilshunoslik markazi tomonidan 2021-yilda o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, xorijiy talabalar muloqotga



asoslangan til o'rganish usullaridan foydalanishlarida, ularning o'rganilgan so'zlarni eslab qolish ko'rsatkichi 72% ga oshgan. Tadqiqot davomida talabalar real hayotiy vaziyatlarda (do'kon, restoran, jamoat transporti) yangi so'zlarni ishlatib dialoglarda ishtirok etishgan. Natijada, ular grammatik jihatdan to'g'ri, avtomatik darajada qo'llay olgani qayd etilgan.

Xulosa

O'zbek tilini o'rganayotgan xorijlik talabalar uchun lug'at boyligini shakllantirish va uni amaliy nutqda qo'llay olish jarayoni murakkab va ko'p bosqichli jarayon hisoblanadi. Til o'rganish jarayonida so'zlarni samarali o'zlashtirish psixolingvistik, metodik va pedagogik omillarning integratsiyasiga bog'liq bo'lib, bu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshirilganda samarali natijalar beradi. Shuningdek, xorijlik talabalar tomonidan o'zbek tilidagi so'zlarni o'zlashtirish bosqichlari, faol va nafaol lug'at boyligini kengaytirish usullari hamda samarali til o'rganish metodlari nafaqat pedagogik tadqiqotlar asosida, balki psixolingvistik omillar bo'yicha olib borilishi maqsaga muvofiq. Multimodal metodlar, ya'ni vizual, audio va amaliy o'qitish usullari birgalikda qo'llanilganda, talabalar yangi so'zlarni 70-90% hollarda samarali eslab qolishlari va faol muloqotda qo'llashlari mumkin. Xususan, real hayotiy vaziyatlarga asoslangan mashg'ulotlar, interaktiv o'yinlar, rolly o'yinlar va mahalliy aholiga integratsiyalashuv kabi metodlar yangi leksik birliklarning tezroq o'zlashtirilishiga va uzoq muddatli xotirada mustahkamlanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Krashen, S. D. (1985). *The Input Hypothesis: Issues and Implications*. Longman.
2. Paivio, A. (1986). *Mental Representations: A Dual Coding Approach*. Oxford University Press.
3. Nation, P. (2001). *Learning Vocabulary in Another Language*. Cambridge University Press.
4. Brown, H. D. (2007). *Principles of Language Learning and Teaching*. Pearson Education.
5. Cambridge University Language Research Center. (2020). *Lexical Retention and Contextual Learning in Second Language Acquisition*. Cambridge University.
6. Brown University Language Center. (2021). *Language Immersion and Retention: A Comparative Study of Interactive Learning Methods*. Brown University Press.
7. Richards, J. C., & Schmidt, R. (2010). *Longman Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics*. Pearson Education.
8. Schmitt, N. (2000). *Vocabulary in Language Teaching*. Cambridge University Press.
9. Ellis, R. (1994). *The Study of Second Language Acquisition*. Oxford University Press.
10. Larsen-Freeman, D. (2011). *Techniques and Principles in Language Teaching*. Oxford University Press.
11. Israilova Z. (2023) "O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda audiovizual materiallardan foydalanish metodikasi", Magistrlik dissertatsiyasi, ToshDO'TAU, 2023.
12. Israilova Z. (2022) "Audiovizual materiallarning til o'qitishdagi ahamiyati", 2022.



<i>MASALASI</i>	
<i>Abdiraimova Khusnobod Samat kizi. KOGNITIV VA METAKOGNITIV O'QIB TUSHUNISH STRATEGIYALARI</i>	597
<i>Xonzodabegim Abdiyeva Turdiboy qizi. ONA TILINI O'QITISHDA FOTO MATERIALLARDAN FOYDALANISH</i>	603
<i>Abduqaxxorova Durdona Farxod qizi. SO'ZNING SEMANTIK TARKIBIDA ASOS VA AFFIKSLARNI O'QITISH USULLARI</i>	605
<i>Ahmadjonova Umida Ikromjon qizi. ONA TILI TA'LIMIDA O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRUVCHI O'QUV TOPSHIRIQLAR TAHLILI</i>	614
<i>Askarova Mashxura Akmal qizi. NOFILOLOGIK YO'NALISHLARDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA O'ZBEK TILINI O'QITISH</i>	620
<i>Atamurodova Gulnora Shermurodovna. TALAFFUZI QIYIN BO'LGAN AYRIM NUTQ TOVUSHLARI USTIDA ISHLASH METODIKASI</i>	626
<i>Baxtiyorova Xusnora Muzaffar qizi. IJOD MAKTABLARIDA YOZMA NUTQ KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHGA OID AMALIY TOPSHIRIQLAR TAVSIFI</i>	630
<i>Avezova Dilnura Bayramovna. ESSE YOZISHDA YO'L QO'YILADIGAN XATOLAR VA ULAR USTIDA ISHLASH USULLARI</i>	635
<i>Axmadjanova Malika Maxmudjon qizi. O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA LUG'AT BOYLIGINI SHAKLLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI</i>	638
<i>Davronova Zebiniso Bahtiyor qizi. SEZGI A'ZOLARI ASOSIDA TASVIRIY MATN YARATISH JARAYONI TAHLILI</i>	646
<i>Ergasheva Lobarxon O'tkir qizi. TIL O'QITISH VA O'RGANISHDA AUTENTIK MATN VA UNDAN FOYDALANISHDAGI AFZALLIK VA KAMCHILIKLAR</i>	651
<i>Hamroyev Umid Mustafoyevich. O'QUVCHILARDA KOGNITIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH</i>	656
<i>Iskandarova Noila Muxtor qizi. PUBLITSISTIK USLUBNI O'RGANISH ORQALI O'QUVCHILARNING TANQIDIY VA IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH</i>	661
<i>Israilova Z. XORIJLIK TALABALARINING O'ZBEK TILIDA SO'Z O'ZLASHTIRISH BOSQICHLARI</i>	664
<i>Komilova Lola Nosillojevna. ONA TILI TA'LIMIDA DARAJALI TESTLAR</i>	670
<i>Axmadiyeva Ozoda Iskandar qizi. 10-SINF O'QUVCHILARINING OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI</i>	677
<i>Madina Axmadjanova Mahmudjon qizi. MUSTAQIL SO'Z TURKUMLARINI GRAMMATIK MINIMUM ASOSIDA O'QITISH TAMOIYILLARI</i>	682
<i>Komilov Xusanboy Bahodir o'g'li. ONA TILINI O'QITISHDA INTERFAOL DASTURLAR VA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH</i>	689
<i>Madvaliyev Orifjon Tolibovich. TAHRIR TA'LIMINI TASHKIL ETISH: DASTLABKI QADAMLAR</i>	693

